

O'ZBEK TILI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARDA LINGVOMADANIY JIATLAR

*Fayzullayeva Nilufar Otabekovna, BuxDPI "O'zbek tili va
adabiyoti" kafedrasи 1-bosqich magistranti*

LINGUOCULTURAL ASPECTS IN SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE UZBEK LANGUAGE

*Fayzullayeva Nilufar Otabekovna, 1st year master's student of the
Department of "Uzbek Language and Literature" at Bukhara State
Pedagogical Institute*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Файзуллаева Нилуфар Отабековна, магистрантка 1-го курса
кафедры "Узбекский язык и литература" БухГПИ*



[https://orcid.org/0009-
0008-0471-3856](https://orcid.org/0009-0008-0471-3856)
fayznilu41@gmail.com

Annotasiya: Maqolada o'zbek tili somatik frazeologizmlarida "soch" komponenti ishtirokidagi birliklar lingvomadaniy konsept sifatida tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida "soch" elementi qatnashgan frazeologik birliklar milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar va estetik qarashlar bilan bog'liq semantik qatlamlarni ochib beruvchi lingvokulturologik vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Frazeologizmlarda "soch" nafaqat jismoniy predmet, balki ayollik, iztirob, go'zallik, donolik va ijtimoiy maqom kabi tushunchalarining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada iboralarning ma'no qiralari, ularning xalq og'zaki ijodidagi funksional yuklamalari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida somatik frazeologizmlar orqali xalqning lingvomadaniy tafakkuri, estetik me'yirlari va stereotip tasavvurlarining ifodaviy vositalar bilan uyg'unligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: somatik frazeologizm, lingvomadaniyat, konsept, soch, frazeologik birlik, semantik tahlil, madaniy konnotatsiya;

Annotation: This article examines Uzbek somatic phraseological units containing the component "hair" ("soch") as a linguocultural concept. Within the scope of the research, phraseologisms involving "hair" are analyzed as linguocultural tools that reveal semantic layers associated with national mentality, social values, and aesthetic perceptions. In these expressions, "hair" functions not only as a physical attribute but also as a symbolic representation of femininity, suffering, beauty, wisdom, and social status. The study applies a systematic approach to explore the semantic nuances and functional loads of these idioms in folk oral traditions. The findings highlight how Uzbek somatic phraseologisms reflect the people's linguocultural worldview, aesthetic norms, and cultural stereotypes through expressive means.

Keywords: somatic phraseologism, linguoculture, concept, hair, phraseological unit, semantic analysis, cultural connotation.

Аннотация: В статье рассматриваются соматические фразеологизмы узбекского языка с компонентом «волосы» («soch») как лингвокультурный концепт. В рамках исследования фразеологические единицы с участием «волос» анализируются как лингвокультурные средства, раскрывающие семантические пласты, связанные с национальным менталитетом, социальными ценностями и эстетическими представлениями. В данных выражениях «волосы» выступают не только как физический объект, но и как символ женственности, страдания, красоты, мудрости и социального статуса. В работе применяется системный подход к анализу смысловых оттенков и

функциональной нагрузки этих единиц в устном народном творчестве. Результаты исследования демонстрируют, как посредством соматических фразеологизмов в узбекском языке отражаются лингвокультурное мышление, эстетические нормы и стереотипные представления народа.

Ключевые слова: соматический фразеологизм, лингвокультура, концепт, волосы, фразеологическая единица, семантический анализ, культурная коннотация;

KIRISH. Lingvokulturologiya – XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan yo‘nalish bo‘lib, tilni milliy madaniyat, milliy mentalitet, qadriyatlarga bog‘liq holda o‘rganadi. Bu yo‘nalish targ‘ibotchilari, jumladan, D. Lixachyov, V. Maslova, Yu. Stepanov, o‘zbek tilshunoslaridan Sh. R. Rahmatullayev, H. Doniyorov, R. Rahmonovlar fikricha, frazeologiya madaniy ma‘lumotlarning salkam “muzey”i yoki “arkivi” sifatida qaralishi mumkin. Frazeologik birliklar uzoq tarixiy davrlarda shakllangan madaniy an’analarni ifoda etadi. Ular milliy xarakter, hayot tarzi, e’tiqod va urf-odatlarning ko‘zgusiga aylanadi. Ayniqsa, inson tana azolariga oid iboralar mental tafakkur shakllarini bevosita ko‘rsatadi. Shu tariqa, lingvokulturologik yondashuv frazeologiya taddiqotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizm – tilshunoslikda bir butun ma‘no ifodalaydigan, leksik jihatdan bo‘linmas, ko‘pincha ko‘chma, obrazli mazmunga ega bo‘lgan tayyor birikma. V. V. Vinogradov ta‘biricha, frazeologizm – bu “birikma sifatidagi yaxlit ma‘no”ni namoyon etuvchi ustuvor ifoda vositasi; uni yoppasiga tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki undagi leksik komponentlar yakka o‘zi emas, aynan butun shakli orqaligina ma‘no ifodalaydi. Tilda inson tafakkuri, madaniyati va estetik qarashlari o‘z ifodasini topadi. Har bir til xalq ruhiyatining in’ikosi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq tilida chuqur ildiz otgan frazeologik birliklar orqali bu jihatlar yanada ravshan ko‘zga tashlanadi. Tilshunoslikning somatik frazeologizmlar deb ataluvchi bo‘limi aynan inson tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarning mazmuni va ularning madaniy ildizlarini o‘rganadi. O‘zbek tilida soch bilan bog‘liq frazeologizmlar nihoyatda boy va rang-barang bo‘lib, ular orqali ayollik, go‘zallik, or-nomus, sabr-bardosh, baxt va armon kabi tushunchalar obrazli tarzda ifodalanadi. “Sochini yulmoq”, “sochlariq oq tushmoq”, “sochini boshiga urmoq” kabi iboralar xalqning ruhiy kechinmalari va

ijtimoiy tajribasini aks ettiribgina qolmay, balki estetik ideal va axloqiy qadriyatlar haqida muayyan tasavvur ham beradi. Maqlada o‘zbek tili somatik frazeologizmlarida “soch” konsepti qanday lingvomadaniy yondashuvlar bilan bog‘liq ekani tahlil qilinadi. Shuningdek, “soch” atrofida shakllangan obrazlar orqali xalq tafakkuri, estetik qarashlari va madaniy kodlarini ochib ham beriladi. Va biz buni qilishda tilimizdagи ibora, maqollar ba adabiyot, folkloridagi soch konseptlaridan bevosita foydalananamiz.

“Konseptual” so‘zi “konsept” so‘zidan keladi, u esa g‘oya, tushuncha, mazmuniy asos degan ma’noni anglatadi. Tilshunoslikda konseptual deganda – bu so‘z yoki iboraning chuqur, madaniy va ma’naviy mazmunini nazarda tutamiz. Ya’ni, biror so‘z nafaqat lug‘aviy, balki xalq ongida qanday obraz, qadriyat bilan bog‘langanligiga aytildi. Masalan: “Soch” – lug‘aviy ma’nosi: boshdagi tuklar. Konseptual ma’nosi: go‘zallik, ayollik, yoshlik, ehtiros, sog‘lik, ba’zida g‘am, yovuzlik (masalan: “sochi uzun, aqli qisqa” degan kamsituvchi ibora). Qisqasi, konsept biror so‘z atrofida xalq ongida shakllangan umumiyl tushunchalar majmuasidir. Konseptual tahlil esa so‘zlar orqasidagi madaniy, psixologik, estetik, tarixiy ma’nolarni ochib berish demakdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Tilimizda inson tanasiga oid a’zolar, xususan, soch, soqol, kiprik, tuk kabi birliklar asosida shakllangan somatik frazeologizmlar xalqning estetik qarashlari, ijtimoiy munosabati va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Soch konsepti ko‘plab barqaror iboralarda uchraydi: “Soch oqarish” – tashvish, g‘am, keksayish belgisi; “Sochini yulmoq” – iztirob, qattiq achinish ifodasi; “Sochidan sudrab kelmoq” – tahqirlash yoki kuch ishlatalish belgisi. Bunday iboralar tilda shunchaki tasvir emas, balki konseptual obraz vazifasini bajaradi. Ular milliy mentalitet, xalqning hayotga, go‘zallikka, e’tiqod va axloqqa munosabatini ochib beradi. Shu sababli,

bu iboralarni lingvomadaniy birliklar sifatida tahlil qilish muhimdir. Aynan, inson tana a'zolari bilan bog'liq lingvomadaniy xususssiyatlarni bir qancha tilshunoslarimiz ham o'z ilmiy ishlarida o'rganganlar. Masalan, Qodirova, T. maqolalar va tadqiqotlarida qadimiy turkiy madaniyatdagi sochning roli, uning qadriyatlar bilan bog'liqligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirganlar. Turaeva, R. lingvomadaniyatga oid ilmiy izlanishlarida soch kabi ramziy birliklar va frazeologizmlarning madaniyatdagi ifodalari haqida so'z yuritganlar. L.S.Vygotskiy — mashhur sovet psixologgi bo'lib, madaniy-tarixiy psixologiya va psixolingvistik sohasidagi ishlari bilan tanilgan. U sochlarga oid frazalardagi lingvistik madaniyat haqida alohida ilmiy kitobi bo'lmasa-da, o'z kitoblarida so'z ma'nosi, ichki nutq va bolaning madaniy rivojlanishi haqidagi maqolalarida so'z ma'nosi, tushunchalar shakllanishi va tilning tafakkur hamda madaniyat bilan bog'liqligi kabi masalalarni ko'targan. Bu esa soch, soqol, kiprik kabi so'zlar ishtirokidagi frazeologizmlarni o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qadimiy turkiy madaniyatda soch: to'g'rilik va norozilik ramzi sifatida talqin ham qilingan. "Soch" qadimiy turkiy jamiyatlarda nafaqat go'zallik belgisi, balki ayolning ruhiy-axloqiy holatini, ijtimoiy maqomini ifodalovchi ramziy vosita bo'lgan. Ayniqsa, turkiy ayollar sochi orqali o'z vafodorligi, sadoqati, g'azabi yoki iztirobini ifoda etgan. Qadimiy tamg'alardan tortib, Orxon-Yenisey bitiklarigacha ayollar sochi bilan bog'liq marosimlar mavjud bo'lgan. Jumladan, turkiy ayollar, eri urushda yoki vafot etgan bo'lsa, sochini hech qachon o'rmaslik orqali uni kutayotganini bildirgan. Bu urf-qoidalar ayolning to'g'riliqi va sadoqatiga e'tibor qaratilgan madaniyat mahsuli edi. Islom madaniyatida ayollar uchun sochni yopish – hayoli, poklik va kamtarlik belgisi. Sochni olib yurish esa yengil xulqlik sifatida baholanadi. G'arbdan, ayniqsa qadimgi Gretsiyada esa soch kuch va erkaklik belgisi bo'lib, Samson afsonasi bunga misol bo'la oladi. Hind madaniyatida soch – ilohiy kuch, ayollik jozibasi va o'zlikning bir bo'lagi hisoblanadi. Turk tilshunosligida ham soch bilan bog'liq ko'plab iboralar mavjud. Masalan, "Saçını süpürge etmek" – o'zini qurban qilish, fidoyilik ma'nosini anglatgan. Qizig'i, bu iboraning variantdoshi o'zbek tilshunosligida ham mavjuddir.

1. Qo'li kosov, sochi supurgi – tinmay mehnat qiluvchidir. Kosov (o'tin kesadigan asbob) va supurgi (tozalovchi vosita) – har ikkalasi mehnat, ayniqsa, ayol mehnati timsoli. Sochning "supurgiga o'xhashi" ayolning og'ir mehnat tufayli e'tiborsiz qolgani, tashqi ko'rinishga vaqt topmasligi bilan bog'liq. Bu obraz orqali ayolning to'xtovsiz ishlashi tasvirlanadi. Bu ibora lingvomadaniyat jihatidan ahamiyatli chunki u ayollar mehnatini ifodalaydi. O'zbek tilidagi ko'plab iboralarda ayol sochi tasviriy vosita sifatida ishlatiladi.

2. Tepa sochi tikka bo'ldi – jahli chiqdi. Bu ibora frazeologik birikma hisoblanadi, ya'ni ma'noviy butunlikka egadir. G'azablangan, jahli chiqqan odam holatini bildiradi. Frazaning semantikasiga qaraydigan bo'lsak, denotativ ma'no sochning tik turishidir, jahli chiqqanlik esa uning konnotativ ma'nosidir. Bu ibora odamning hissiy holatini soch orqali ifodalashga asoslangan. O'zbek xalq madaniyatida jahli chiqqan odamning tepe sochi "tikka" turadi, ya'ni sochning qimirlamasligi, tik turishi ichki kayfiyat – g'azab, asabiylik belgisi sifatida qaralgan. Bu holat yuz va bosh mushaklarining taranglashuvi orqali yuzaga keladi.

Soch orqali ichki kechinma (jahli chiqish)ni tasvirlash milliy psixologiyaga xos. Bu ibora bevosita tana a'zosi orqali ichki holatni ko'rsatadi – bu esa somatik frazeologizmlarning lingvomadaniy belgisi hisoblanadi.

3. Sochiga oq oralamoq – ko'p tashvish ko'rmoqni anglatadi. Oq soch odatda qarilik, tajriba, azob-uqubat belgisi sifatida ham qaraladi. Bu ibora tashvish, g'am, dardlar ortidan odamning yoshlikdanoq sochlari oqarib ketishini bildiradi. O'zbek madaniyatida "oq soch" hurmat, shu bilan birga, dard belgisi hisoblanadi.

Bu ibora estetik va psixologik tasavvurlar bilan bog'liq. Sochning oqargani hayotiy zarb, dardni bildirsa-da, xalq og'zaki ijodida bunday soch tajriba va sabr belgisi sifatida ham qadrlanadi. Somatik frazeologizmda soch semantik markaz bo'lib turibdi. Iboraning denotativ ma'nosi: sochning oqorganidir. Uning konnotativ ma'nosi esa: tashvish, dardni bildiradi. Bu ibora eufemizmga ham yaqinlashadi chunki unda dardli hayotni yumshoq ifodalangan.

4."Soch yulish – qadimiy norozilik harakati bo'lgan. Hozirgi kunda "sochini yulmoq" iborasi

qayg‘u belgisi sifatida talqin qilinadi, biroq qadim turkiy ayollarning marosimlarida bu harakat g‘azab va ijtimoiy norozilik ramzi bo‘lgan. Ayniqsa, begona yurtdan kelgan zulmkorlar yoki dushmanning zo‘ravonligi qarshisida ayollar jamoat oldida sochini yulib, ularni la’natlagan.

Bu turdagи norozilik og‘zaki folklor namunalarida, xalq qo‘sishlarida yashirin shaklda saqlanib qolgan. Tilda “soch” bilan bog‘liq ko‘plab frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ular jamiyatda shakllangan ma’naviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va estetik qarashlarning tildagi ifodasidir. Masalan: Sochini yulmoq – g‘am-g‘ussa, fojiaga uchraganda ayollarga xos tarzda qayg‘uni ifodalovchi harakatdir. Soch yoymoq – erkinlik, betartiblik, yoki ba’zida g‘am-qusurdan befarqlikni bildirgan. Soching to‘kilsin – duo, la’nat, yoki og‘ir ranjish ifodasi sifatida ishlatiladi. Bu kabi iboralar orqali xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatları va estetik mezonları tilde bevosita aksini topgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Xullas, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan yangi yo‘nalish – lingvomadaniyatshunoslik fanining shakllanishi bilan inson tafakkuri, qadriyatları, urfodatlari tilda qanday aks etishi masalasi dolzarb mavzuga aylanmoqda. Har bir millatning tili uning ma’naviy dunyosi, tarixiy xotirasi va madaniy an’alarining yorqin ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, inson tanasiga oid elementlar – qo‘l, ko‘z, yurak, soch kabi birliklar nafaqat biologik, balki madaniy, diniy va estetik tushunchalarning mazmuniy markazida turadi. "Soch" tushunchasi turli zamon va makonlarda xilma-xil ma’naviy yuklamalarga ega bo‘lgan. U

go‘zallik, hayot, kuch-quvvat, sadoqat, baxtsizlik, hatto qurbanlik ramzi sifatida talqin qilingan. O‘zbek tilida sochga oid iboralar, maqollar, matallar va badiiy tasvirlar bu konseptning boy semantik qatlamlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Виноградов, В. В. Очерки по истории русского литературного языка – Москва: Наука, 1972. – 312 с.
2. Шанский, Н. М. Фразеология современного русского языка – Москва: Высшая школа, 1985. – 160 с.
3. Раҳматуллаев, Ш. Р. Ўзбек тилининг фразеологик лӯғати – Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1978. – 406 б.
4. Маслова, В. А. Лингвокультурология – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
5. Лихачёв, Д. С. Поэтика древнерусской литературы – Ленинград : Наука, 1967. – 372 с.
6. G‘ulomov L. “O‘zbek frazeologiyasining nazariy muammolari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
7. Mahmudov N. “Til va tafakkur: lingvistik-falsafiy yondashuvlar”. – Toshkent: Universitet, 2005.
8. B. Tursunova. “Frazeologizmlarning ijtimoiy-lingvistik tavsifi”. – Toshkent: Fan, 2010.
9. O‘zbek xalq maqollari / tuz. O. Madrahimov. – Toshkent: Adabiyot, 1997.
10. Muhammadovich, F. O. (2024). The Typological Features Of English And Uzbek Children’s Game Folklore. American Journal Of Multidisciplinary Bulletin, 2(5), 174-179.

